ISSN 2181-3187

UDK:635.1 /.9.

O‘RMON PLANTATSIYALARINING QATOR ORALARIDA BEDA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH

Yulbasov Avazbek Muhtarovich[1]
Sultonov Xumoyun Mahmudjon o‘g’li[2]
Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o‘g‘li[3]
Abdurahmonov Muhammadmo‘ydin Bohodirjon o‘g‘li[4]

avazbekakayulbarsov@gmail.com[1]
xumoyunsu@gmail.com[2]
nazirjonovi@mail.ru[3]
muhammadmoydinbdurahmonov@gmail.com[4]

O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o‘rmon plantatsiyalari qator oralig‘ida beda (Medicago sativa L.) o‘simligini yetishtirishning ilmiy, agrotexnik va iqtisodiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotlarda beda ekinining tuproq unumdorligini oshirish, biologik azot bilan boyitish, yem-xashak bazasini mustahkamlash hamda yer resurslaridan samarali foydalanishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация: В статье рассмотрены научные и агротехнические основы возделывания люцерны (Medicago sativa L.) в междурядьях лесных плантаций. Показана роль культуры в повышении плодородия почвы и рациональном использовании земельных ресурсов.

Annotation: This article discusses scientific and agrotechnical aspects of cultivating alfalfa (Medicago sativa L.) between forest plantation rows. The importance of alfalfa in improving soil fertility and sustainable land use is highlighted.

ISSN 2181-3187

Kalit so‘zlar: beda, o‘rmon plantatsiyasi, qator oralig‘i, sug‘orish, o‘g‘itlash, tuproq unumdorligi

Ключевые слова: люцерна, лесные плантации, междурядье, орошение, удобрение

Keywords: alfalfa, forest plantations, inter-row cultivation, irrigation, fertilization

Beda turli tuproq sharoitidagi yerlarda o‘sishi mumkin, lekin neytral yoki sal ishqor reaksiyali va tekis relyefga ega maydonlar beda uchun qulay hisoblanadi**.** Beda juda sho‘rlangan, botqoq va og‘ir o‘tkazuvchan loyli tuproqlarda yaxshi rivojlanmaydi. Haydashdan avval yerlarga gektariga sof xolda 80-100 kg fosforli o‘g‘itni solinishi ularni agrofizik xususiyatlarini yaxshilashga, ekilgan beda tekis unib chiqib sog‘lom rivojlanishiga va hosildorlikni oshirishiga qulay sharoit yaratib beradi. Erta bahorda yer tobiga kelishi bilanoq yerlarni tishli borona vositasida izma-iz ikki marta albatta boronalash, keng bazisli tekislagich bilan yer yuzini tekislash, mola bilan bostirish lozim. Yerlarni sifatli tekislash va molalashga aloxida e’tibor berish zarur. Beda o’simligini ekishdsa konditsion urug‘larini erta bahorda janubiy sharqiy viloyatlarda 20 martgacha ekish eng muqobil muddat xisoblanadi. Urug‘ seyalkalarda 2-3 sm (qattiq tuproqlarda1-2 sm) chuqurlikda qadaladi. Ekish meyori gektariga 18-20 kg.

Respublikamizning hududlarida beda yoppa ekilgan maydonlarda yetishtiriladi. Birinchi yili bedadan ko‘proq ozuqa massasini olish maqsadida, g‘alla ekinlari bilan koplama qilib ekiladi. Bunda gektariga 50 kg dan arpa yoki suli bilan birgalikda ekish yaxshi samara beradi. Ekish bilan bir vaqtda yoki ertasi kuni 60 (70) sm sug‘orish uchun ariqlar olinadi.

O‘zbekiston iqlim sharoitida beda kuzda ham ekiladi. Bu holda urug‘ ko‘karib, o‘sha yildayoq ildiz otadi, qishga kelib nihollar baquvvatlashib, chidamli bo‘ladi. Kuzda ekilgan bedaning birinchi yildagi hosili erta bahorda ekilgan bedaga nisbatan 1,5-2 barobar ortiq bo‘lishi kuzatilgan. Kuzda ekilgan beda samarali

ISSN 2181-3187

bo‘lishi uchun urug‘ qisqa muddatlarda to‘la va qiyg‘os unib chiqishini ta’minlash, nihollar tez o‘sishi uchun optimal sharoit vujudga keltirish zarur. Shunda beda sovuq turib, mavsum oxirlagunga qadar 30 sm gacha o‘sadi, yaxshi ildiz otadi, baquvvat bo‘ladi. Bedaning erta kuzda ekishning optimal muddati avgust-sentyabrning boshlari hisoblanadi. O‘zbekistonning janubiy sharqiy hududi tumanlarida beda ekish ishlarni 20 sentyabrda tugallash lozim. O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlari uchun mos bo‘lgan Toshkent-1, Toshkent-1728, Toshkent-2009, Toshkent-3192, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga mahalliy Xiva, Xorazm-2, Qoraqalpoq-15 va mamlakatning lalmi yerlari uchun Aridnaya va Boygul navlari respublika qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi maydonlari ko‘chatxona qator oralariga ekish uchun tavsiya etilgan. Shu bilan birga Davlat reyestrida chet mamlakatlarning Viktoriya (Ispaniya), Geya, Dimitra, Lodi, Emiliana (Italiya) navlari kiritilgan. Beda bir va ko‘p yillik o‘tlar, ba'zan bargi uch bargchali chala butalar hisoblanadi. Bularga eng muhim yem-xashak o‘simliklar kiradi. Bedaning bitta Medicago sativa nomli turi ekiladi. Beda-L avlodiga mansub bo‘lib o‘z ichiga 50 ta turni qamrab olgan, bularning orasida bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar uchraydi. Eng ko‘p tarqalgan turlari: Sariq beda, Zangori beda, Duragay beda, Xmelsimon beda, Ekma beda, Sariq beda. Ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik, Poyasi tik o‘sadi, yotib o‘sadigan turlari ham uchraydi. Bo‘yi 40-170 sm bo‘ladi, ichi parenxima to‘qimalari bilan to‘lgan, tuklangan. Dukkagi o‘roqsimon, ko‘p urug‘li, urug‘i sariq, jigarrang, buyraksimon, mayda 1000 ta urug‘ning vazni 1,0-1,6 g bo‘ladi. Toshkent-1728 navi. O‘rtapishar nav. Sug‘oriladigan yerlarda birinchi yili 3-4 marta, keyingi yillari 5-6 marta pichan uchun yoki 1 marta urug‘lik uchun qoldirilib, 3 marta ozuqa uchun o‘rib olish mumkin. O‘simliklardagi protein moddasining miqdori 18,2-20,4%. Bargdorligi 40-45%. Bundan tashqari, bu nav beda shirasiga chidamliligi bilan farqlanadi. Bu nav Namangan viloyatiga ekish uchun tavsiya etilgan. Toshkent-2009 navi. O‘rtapishar nav. Sug‘oriladigan yerlarda birinchi yili 4 marta, keyingi yillari

ISSN 2181-3187

5-6 marta pichan uchun yoki 1 marta urug‘ uchun va 3-4 marta ozuqa uchun o‘rib olish mumkin. Bu nav Andijon, Namangan viloyatlariga ekish uchun tavsiya etilgan. Toshkent-3192 navi. Ertapishar nav, bahorda va o‘rimdan keyin tez o‘sadi, vegetatsiya davri 112 kun. Sug‘oriladigan yerlarda mavsumda 5-6 marta o‘rib olish mumkin. Gektaridan 130-188 ^{0}C pichan olish mumkin. Nav farg’ona vodiysi barcha viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarga ekish uchun tavsiya etilgan. Geya navi Italiya seleksiyasiga mansub nav. Farg’oan vodiysi viloyatlari xamda Respublikaning boshqa viloyatlarida ekishga tavsiya etiladi. Sovuq qish va issiq yoz oylariga ega keskin kontinental iqlim sharoitiga yaxshi mos keladi. Kishdan so‘ng juda tez uyg‘onadi. Yetib qolishga chidamli. Hosildorligi - ko‘k massasi 80-100 t/ga. Biologiyasi Beda ko‘p yillik o‘simlik. Beda urug‘ining unib chiqishi uchun harorat kamida +1+2^o, o‘rtacha +15+20^o, eng ko‘pi +25+30^o bo‘lishi kerak. Bedaning yosh maysalari bitta oddiy bargli davrida 5-6^o sovuqqa chidaydi. Yetuk beda o‘simligi qalin qor qatlami ostida 40^o gacha, qor qatlami bo‘lmaganda esa 15-20^o C sovuqqa bardosh beradi. Tupining shakli har xil bo‘ladi. Dukkagi-burama shaklida, 2-5 marotaba buralgan, 6-12 ta urug‘ bo‘ladi, dukkagi mayda, diametri 3-5mm, tukli va tuksiz bo‘ladi. Beda ekilishi O‘rta Osiyoda ko‘p asrlik tarixga ega. Tarixdan mana shu narsa ma’lumki, O‘rta Osiyo bedaning kelib chiqish markazlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti sug‘oriladigan yerlardan muntazam ravishda mo‘l pichan va urug‘ hosili olish uchun g‘oyat qulay. Beda navlari. Aridnoya o‘rtapishar, o‘suv davri 110 kun, bahorda birinchi o‘rim 65 kunda yetiladi, yaxshi pishmaydi. Ikkinchi yildan boshlab 5-6 yil davomida har yili ikki o‘rim olish mumkin. Lalmi yerlarda ko‘kat hosili 64% s/ga, pichan 54% s/ga, urug‘ 2.4% s/ga, ko‘kat tarkibida 17.2% oqsil 25.8% to‘qima bo‘ladi. Bu serhosil, ertapishar, qishga va qurg‘oqchilikka chidamli nav. Bahorda erta o‘sadi, kuzda qishlashga kech kiradi.

Beda o’simligini oxirgi kesish kuzda sovuq havo boshlanishidan taxminan bir oy oldin amalga oshiriladi. O’t qurib ketguncha saytda yotadi 5-6 oy ichida

ISSN 2181-3187

urug’lardan beda chiriydi va tuproqni azot bilan to'ydiradi. Katta maydonlarga o'simliklar ekishda, erga yashil go'ngni kiritish uchun traktor ishlatiladi. Agar beda chorva uchun ozuqa sifatida ishlatilsa, uni rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yig'ib olish kerak. Siz gullashning boshlanishini kutmasligingiz kerak, kurtaklar paydo bo'lgandan so'ng, madaniyatning ozuqaviy qiymati keskin kamayadi. Shuni ham hisobga olish kerakki, birinchi bo'lakning o’ti ko'proq xom proteinni o’z ichiga



oladi, ikkinchi va uchinchi to'lqinli beda esa juda ko’p o’simlik tolasini o’z ichiga oladi.

Rasm. Dala maydonlarida beda yetishtirish

Xulosa Beda urug’ini ekish ochiq yerga belgilangan iste’mol me’yorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Jarayonni bahorda ham, kuzda ham bajarishga ruxsat beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO. Alfalfa production guide.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari.
3. Karimov I.A. Qishloq xo‘jaligi ekologiyasi.